



UO'T: 233.2/3.

Adiba BOBAEVA,

Qorako'lg'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti, Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyasi bo'limi mudiri, b.f.(PhD).d.
E-mail: uzkarakul30@mail.ru

SamDU professori, b.f.d. X.Xaydarov taqrizi asosida

RESULTS OF CULTIVATION OF DESERT FORAGE PLANTS UNDER THE CONDITIONS OF KARNABCHUL

Annotation

The article describes the results of indicators of growth and development of species and samples of desert-eaten plants brought from the areas of the Bukhara region, kept in collection nurseries, in the conditions of the Karnabchul gypsum desert.

Key words: Desert, pasture, vegetation, type, selection, introduction, bushiness, productivity, centner, population.

РЕЗУЛЬТАТЫ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ ПУСТЫННЫХ КОРМОВЫХ РАСТЕНИЙ В УСЛОВИЯХ КАРНАБЧУЛЯ

Аннотация

В статье описаны результаты показателей роста и развития видов и образцов пустынно-поедаемых растений, привезенных из районов Бухарской области, содержащихся в коллекционных питомниках, в условиях гипсовой пустыни Карнабчуля.

Ключевые слова: Пустыня, пастбище, растительность, тип, выборка, интродукция, кустистость, урожайность, центнер, популяция.

CHO'L OZUQABOP O'SIMLIK TURLARINI QARNABCHO'L SHAROITIDA MADANIYLASHTIRISH NATIJALARI

Аннотация

Maqolada kolleksion ko'chatzorlarda parvarishlanayotgan Buxoro viloyati hududlaridan keltirilgan cho'l ozuqabop o'simliklari tur va namunalarining gipsli Qarnabcho'l sharoitida o'sishi va rivojlanishi ko'rsatkichlari natijalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Cho'l, yaylov, vegetatsiya, tur, namuna, introduksiya, tup soni, hosildorlik, sentner, populyasiya.

Kirish. Cho'l-yaylov chorvachiligi mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim sohalaridan biri va uni barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri-cho'l yaylovlari hosildorligidir.

Mamlakatimizdagi cho'l va yarim cho'l yaylovlari 20 mln gektardan ortiq maydonni egallaydi va chorvachilikni rivojlantirishning ulkan potensialiga ega. Ammo ularning hosildorligi juda past (o'rtacha 2,5-3 s/ga quruq massa) va yillik yog'ingarchilik miqdori bilan uzviy bog'liq. Qurg'oqchil yillarda hosildorlik o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 4-5 marotaba kamayib ketadi. Boz ustiga, hozirgi kunda foydalanilib kelinayotgan yaylovlar hosildorligi ulardan uzluksiz va pala-partish foydalanish oqibatida o'rtacha 21% ga pasaygan [2].

Qarnabcho'l 500 ming gektar maydonni egallagan va qorako'lg'chilik rivojlangan yirik regiondir. Qarnabcho'l yaylovlari gipsli cho'l mintaqasiga xos shuvoq – efemerli o'simlik assotsiatsiyalaridan iborat va o'rtacha hosildorlik hozirgi kunda 2,5 sentner quruq massadan ortmaydi. O'simlik qoplamidagi asosiy edificator o'simlik bo'lgan shuvoq o'rni ozuqaviy xususiyatiga ega bo'lmagan isiriq va qirg'asoch o'simliklari jadal egallab bormoqda va yaylovlarni fitomeliyoratsiyalash orqali hosildorligini oshirish ushbu regionda o'ta dolzab vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yaylovlar inqirozini bartaraf etishga oid ko'pgina ilmiy-tadqiqot izlanishlari amalga oshirilganligini ham ta'kidlamog' o'rinli. Mazkur izlanishlarning mahsuli o'laroq, yaylov ixotazorlari, adirlarda kuzgi-qishgi yaylovlar, turli mavsumlarda foydalanishga mo'ljallangan yaylov agrofitotsenozlari barpo etish texnologiyalari ishlab chiqilgan [5], [6]. Shuningdek, Qorako'lg'chilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot insituti jamoasining samarali izlanishlari natijasida Markaziy Osiyoning turli-tuman tuproq-iqlim sharoitli mintaqalaridan keltirilgan cho'l ozuqabop o'simliklari turlari madaniylashtirilib, istiqbolli turlar tanlab olingan va 18 dan ortiq seleksion navlar yaratilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi Tadqiqotlarning ob'ekti sifatida Buxoro viloyati Gazli, Qorako'l tumanlarida tarqalgan ozuqabop o'simliklarning yovvoyi populyasiyasi urug'lari xizmat qildi. O'simliklarni yangi sharoitda sinashda "Cho'l yaylov o'simliklarini madaniylashtirish" [5] va "Cho'l ozuqabop o'simliklari introduksiyasi va seleksiyasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar" [4] dan foydalanildi.

Tahlil natijalari. Qarnab tajriba dalasida 2020 - yilda barpo etilgan 10 tur va 25 namunadan iborat kolleksion ko'chatzorlarda parvarishlanayotgan tur va namunalarining xo'jalikbop ko'rsatkichlari tahlili natijalariga ko'ra qish oyida hamda bahor oylarida yog'ingarchilik miqdorining kam bo'lishiga qaramay tajriba dalasida tuproq namligi 1,34% dan 4% gacha o'zgarib turgan sharoitda qo'yrovuq namunalari orasida Buxoro viloyati Jondor tumanidan terilgan namunasining bahorgi qayta o'sish ko'rsatkichi 20,8 sm ekanligi qayd etildi. Yoz oyiga kelib esa quyrovuqning Uchqir-2 namunasida 30,9 sm eng yuqori bo'yiga o'sish ko'rsatkichi qayd etildi, Kuz faslida esa ikkala namunalarda ham bo'yiga o'sish bo'yicha deyarli farq kuzatilmadi ya'ni 38,1-38,2 sm ekanligi aniqlandi. Boyalich namunalari orasida ham bahorgi qayta o'sish jarayonida deyarli farq kuzatilmadi, yoz oyiga kelib esa boyalichning "Uchqir 2" namunasida bir oz yuqori bo'yiga o'sish ko'rsatkichi qayd etilib bu ko'rsatkich 25,9 sm ni tashkil etdi. Kuz faslida ham boyalichning Uchqir-2 namunasida yuqori ko'rsatkich qayd etildi va bu

ko'rsatkich 38,6 sm ni tashkil etganligi qayd etildi. Izen namunalari orasida eng yuqori bo'y o'sish ko'rsatkichi "Izen 1" namunasida kuzatilib, bu ko'rsatkich 55,3 sm ni tashkil etdi.

Vegetatsiya davrining tugalanish davrida esa parvarishlanayotgan tur va namunalarda bo'yiga o'sish ko'rsatkichlaridagi farq 10 sm dan 15-16 sm ga cha ekanligi qayd etildi.

Kuz oyida olib borilgan tadqiqot natijalari tahliliga ko'ra oktyabr oyida qo'yrovuq namunalari orasida bo'y o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha deyarli farq kuzatilmadi ya'ni 38,2-38,1 sm ni tashkil etdi. Boyalich namunalari orasida esa boyalichning "Uchqir-2" namunasining bo'yiga o'sish ko'rsatkichidagi farq 38,6 sm ekanligi qayd etildi, izen namunalari orasida esa bahor, yoz hamda kuz oyida ham "Izen 1" namunasi bo'yiga o'sish ko'rsatkichi bo'yicha ustunlik qildi va bu ko'rsatkich bahorda -33,0 sm ni, yozda -49,4 sm ni va kuz oyiga kelib esa 55,3 sm ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

2020 yilda ekilgan kolleksiya ko'chatzorida parvarishlanayotgan tur va namunalarning xo'jalikbop xususiyatlari ko'rsatkichlari, 2021 y.

№	Tur va namunalari	O'simliklarning bo'yiga o'sishi, sm. $X \pm S_x$			1 tup o'simlikning o'rtacha massasi, g	Cv, %
		bahor	yo'z	kuz		
1	Qo'yrovuq Buxoro Jondor	20,8±1,8	26,5±3,0	38,2±0,53	43,4±0,6	2,35
2	Quyrovuq Uchqir 2	18,7±2,9	30,9±2,3	38,1±1,2	43,0±1,6	6,7
3	Boyalich Gazli	21,5±3,0	24,5±1,0	35,0±1,5	10,3±0,4	7,3
4	Boyalich Uchqir-2	21,5±3,9	25,9±4,6	38,6±3,2	13,5±1,7	21,9
5	Izen 1	33,0±2,7	49,4±4,0	55,3±1,9	45,6±2,7	10,5
6	Izen 2	21,1±2,7	42,4±3,3	46,2±4,0	34,1±2,5	6,3

Tur va namunalarning birinchi vegetatsiya yilidagi quruq xashak hosildorligini aniqlashda model tuplar usulidan foydalandik. Quruq xashak hosildorligining yuqoriligi bo'yicha quyrovuq namunalari orasida deyarli farq kuzatilmadi va bu ko'rsatkich 43,4 grammni tashkil etdi, boyalich namunalari orasida esa boyalichning "Uchqir-2" namunasining quruq xashak hosildorligi 13,5 gr. ni tashkil etganligi qayd etildi. Izen namunalaridan izenning "Izen 1" namunasining quruq xashak hosildorligi ko'rsatkichi ustunlik qilib, 45,6 gr ni tashkil etdi (1-jadval).

Xulosa va takliflar. "Qarnab" tajriba dalasi kolleksion ko'chatzorlarida cho'l ozuqabop o'simliklaridan quyrovuqning "Jondor" hamda "Uchqir 2", boyalichning "Gazli", "Uchqir 2", izenning "Izen-1" va "Izen-2" namunalaridan seleksiya ishlari uchun dastlabki manbalar tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari asosida cho'l-yaylov ozuqabop o'simliklarining yangi istiqbolli navlari yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. Бобаева А.С., Халилов. Х.Р., Синдоров. Ш.Қ. Адир минтақасига мос яйлов озукабоп ўсимликлардан селекция манбаларини танлаш. Ветеринария ва чорвачилик соҳасидаги ютуқлар, мавжуд муаммолар ва уларнинг ечими. Республика илмий-амалий конференция материаллари. 2021 й. 6-7 май, 265-267-б.
2. Махмудов М.М. Қорақўлчилик яйловларининг ҳозирги ҳолати ва истиқболли фитомелиорантларни танлашнинг асосий критерийлари. Чўл яйлов чорвачилигини ривожлантириш муаммолари (халқаро илмий-амалий конференция материаллари). Самарканд, 2005, 187-189 б.
3. Махмудов М.М. Совершенствование технологии улучшения пастбищ на деградированных почвах Навоинского вилоята.// Яйловлардан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг институтсионал масалалари.-Тошкент, 2013.-266-269 б.
4. Раббимов А., Ҳамроева Г. Чўл озукабоп ўсимликлари интродукцияси ва селекцияси бўйича услубий тавсиянома. Самарканд, Қорақўлчилик ва чўл экологияси илмий-тадқиқот институти, 2016. 42 б.
5. Шамсутдинов З.Ш. Введения в культуру пустынных кормовых растений. Ташкент, Мехнат, 1987. 177 с.
6. Шамсутдинов З.Ш., Ибрагимов И.О. Долголетные пастбищные агрофитотеносы в аридной зоне Узбекистана. Ташкент, Фан, 1983. 174 с.